

«UMUMTA'LIM MAKTABLARIDA DARSLARDA KOMPYUTER VA AXBOROT TEXNOLOGIYASLARIDAN FOYDALANISH»

O'zbekiston respublikasi Farg'ona viloyati

Bog'dod tumani 4-umumta'lim maktabi informatika fani o'qituvchisi

Axmedova Muattar Voxidjon qizi

Annotatsiya: bu maqolada umumta'lim maktablarda darslarda kompyuterdan foydalanish va uning zarurati va darsga katta ahamiyati xususida .

Kalit so'zlar: kompyuter, axborot texnologiyalari, ta'lim-tarbiya, Internet, maktab, WiFi

Keyingi yillarda kompyuter texnologiyasining jadal rivojlanishi yangi informatsion texnologiyalarning yaratilishiga va ularning ham intensiv rivojlanishiga olib keldi. Yangi informatsion texnologiyalar o'z navbatidafanning barcha sohalarini iqtisod, texnika, fizika, matematika, ximiya va hatto fiziologiya sohalariga kirib borgan va qo'llanilmoqda. Internet tarmog'ining kengayishi va internet xizmati turlarining ko'payib borish ham ilmiy texnik taraqqiyoti rivojiga salmoqli hissa qo'shmoqda. Shu bilan birga mamlakatimizdagi har bir maktab zamonaviy kompyuterlar bilan jihozlanib, deyarli 100 % WiFi Internet tarmog'i bilan ta'minlandi. Yangi informatsion texnologiyalar o'quv jarayonlariga ham keng ko'lamda qo'llanila boshlandi. Jumladan, masofadan o'qitish internet ma'lumotlaridan o'quv jarayonida foydalanish imkoniyatlari paydo bo'ldi. Bu esa yangi pedagogik texnologiyalarini hosilbo'lishiga, ularni amalda qo'llashga va rivojlanishiga olib keldi. Natijada internet bilan tanishuvga va internet xizmati turlarini informatika va boshqa fanlarni o'qitilishiga qo'llash, internet ma'lumotlaridan foydalanishga olib keldi. O'quvchilarga internetda turli fanlarga oid ma'lumotlarni olishni namoyish qilish va bu ma'lumotlar bilan tanishib, ularga tahlil qilishni o'rgatish, turli fanlardan onlayn testlar ham ishlab o'zlarini bilim saviyalarini oshirmoqdalar. Bundan tashqari onlayn olimpiadalarda ham faollashildi. 299 Hozirgi kunda kompyuter hayotimizning barcha sohalariga shiddat bilan kirib kelmoqda. Turli mutahassislar, tadbirkorlar, ijodkorlar o'z

mexnat faoliyatida kompyuterlardan keng fodalanmoqdalar. Kompyuter yordamida ajoyib mo'jizalar yaratilayotgani ham sir bo'lmay qoldi. Kelajakni uningsiz tasavvur qilish mumkin emasligi shu kunda barchaga ayondir. Bugun kompyuterda hisoblash, yozish, o'rganish, gapirish, saqlash, chizish, qayta ishlash, musiqa yozish, axborotni olish va biror manzilga yuborish tahrirlash, maketlar tayyorlash, audio va video ma'lumot yaratish mumkin. Uning imkoniyatlari kundan-kunga ko'paymoqda, shuning uchun ishda, o'qishda, uyda va hatto dam olishda ham insonning eng ishonchli do'stiga aylandi. Bundan tashqari internetning kirib kelishi va uning o'ziga xos yo'li fan sivilizatsiyasining yuksak cho'qqilaridan biridir. Shu kungacha kelib biror bir ma'lumotni olish, yangilik bilan tanishishda turli xil axborot vositalari orqali (jurnal, gazeta, radio va televideniya) foydalanar edik. Endi bo'lsa, ma'lum daqiqalar ichida o'zingiz istagan ma'lumotga ega bo'lishingiz mumkin. Bundan tashqari internet xizmatidan foydalanish orqali chet el bilan aloqa qilishingiz, konferentsiyalarda qatnashib (shu yerning o'zida) ilmiy salohiyatingizni oshirishingiz mumkin. Internet XX asrning eng buyuk kashfiyotlaridan biri hisoblanadi. Ushbu kashfiyot tufayli butun jaxon bo'ylab yoyilib ketgan yuz millionlab kompyuterlarni yagona informatsion muhitga birlashtirish imkoniyati tug'ildi. Foydalanuvchi nuqtai nazardan tahlil qiladigan bo'lsak internet birinchi navbatda tarmoq jihozlariga o'zaro ma'lumotlar almashish virtual muloqot qilish imkonini yaratib beruvchi informatsion magistr va vazifasini o'taydi. Ikkinchidan esa unda mavjud bo'lgan ma'lumotlar bazasi, majmuasi dunyo bilimlar omborini tashkil etadi. Undan tashqari internet bugungi kunda dunyo bozorini o'rganishda marketing ishlarini tashkilotishda zamonaviy biznesning eng muhim vositalaridan biriga aylanib bormoqda. Xususan internetning turli imkoniyatlaridan foydalanib matematikaga oid amallarni ishlashimiz mumkin, bu esa o'quvchilarga matematik fodalarni tez va oson tushunish imkonini beradi. Bu materiallardan foydalanish bilan bir qatorda o'quvchilarning bilimlariga qiziqishini oshirishga erishiladi. Olingan ma'lumotlar o'quvchilar bilan birgalikda tahlil qilinadi. Bundan tashqari masalan, geografiya fanida ham salmoqli. GoogleMap ilovasi orqali jonli to'gridan-to'gri mamlakatlar xaritasini, hozirgi soatlarda joyi va geografik xususiyatlarini ko'rishimiz mumkin. Bu esa o'quvchi ongiga fanni o'zlashtirish yanada osonlashishini ko'rsatmoqda. Misol tariqasida matematika fanini

ko'rsak. Matematika fanlarini o'qitishga yangi texnik vositalar, shu jumladan, kompyuter va boshqa axborot texnologiyalarining jadal kirib kelayotgan hozirgi davrida fanlararo uzviylikni ta'minlash maqsadida informatika fanini yutuqlaridan foydalanish dolzarb masalalardan biridir. Kompyuter texnikalarini ta'lim muassasalariga tatbiq etish, o'qitish jarayonini optimallashtirishga keng yo'l ochib beradi. Keyingi o'n yillikda matematika fanini o'qitishda kompyuterlardan foydalanish bir necha asosiy yo'nalishlarda olib borildi. Bularga kompyuter yordamida bilimni baholash, turli tipdagi o'rgatuvchi dasturlarni ishlab chiqish va rivojlantirish, bilishga oid matematikaviy o'yinlarni ishlab chiqish va boshqalar kiradi. Informatika fanlarini o'qitishda kompyuterlarni qulayligini yana bir yo'nalishi ayrim o'quv holatlarini modellashtirishdir. Modellashtirilgan dasturlardan foydalanishning maqsadi, o'qitishning boshqa usullari qo'llanganda tasavvur qilish, ko'z oldiga keltirilishi qiyin bo'lgan materiallarni tushunarli bo'lishini ta'minlashdan iborat. Modellashtirish yordamida o'quvchilarga ma'lumotlarni grafik rejimda kompyuter multimedia si ko'rinishida taqdim qilish mumkin. Shu bois dan ular fanni chuqur o'rganish va o'quv jarayonida sezilarli darajada mustaqillik namoyon etishga moyil bo'ladilar. Kompyuter texnologiyasida matnlar, tasvirlar, ovozlar, shakllar va shunga o'xshash boshqa ishlarni amalga oshirish imkoniyatlari maxsus dasturlash yordamida juda yengil va tezkorlik bilan hal etilmoqda. O'qituvchi Windows operatsion tizimi bilan ishlatiladigan Word matn muharriri, Power Point, Internet, Excel va boshqa maxsus amaliy dasturlar, Multimedia vositalari yordamida yengilgina o'z darsini kompyuter texnologiyasidan foydalanib tashkil etishi mumkin. Buning natijasida o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqish ortadi, o'tilgan mavzuni tushinish, kerakli tushunchani anglash va o'zlashtirish jarayoni tez kechadi. Elektron jadval yordamida berilgan algoritm asosida masalalarni hal etish, jadvaldagi qiymatlar bo'yicha turli shakllar yasash va bosmaga chiqarish ishlarini bajarish mumkin. Exceldagi avtomatik to'ldirish imkoniyatidan foydalanib sonli qiymatlarni va matn elementlarini kiritishni sonlashtirish mumkin. Bu imkoniyat ayniqsa funksiya qiymatlarini jadvashtirishda katta yordam beradi. Funksiya qiymatlarini ma'lum qadam bilan hisoblash matematikaning juda ko'p bo'limlarida uchraydi. Ayni shu imkoniyatlardan foydalanib matematika fakultetidagi o'quvchilar funksiyalarning grafiklarini

hosil qilishlari va shu tariqa ayrim murakkabroq funksiyalarning xossalarini ekranda aniq ko'rishlari mumkin. Excel dagi funksiya ustasi funksiya va uning argumentlarini yarim avtomatik tartibda kiritishga yordam beradi. Funksiyalar ustasini qo'llash funksiyaning yozilishi va uning hamma argumentlarini sintaktik to'g'ri tartibda kiritilishini ta'minlaydi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarning funksiyalarning xossalarini qiynalmay vatezda o'rganishlariga juda katta yordam beradi. Ma'lumotlarni diagrammalar shaklida namoyish etish, bajarilayotgan ishni tez tushunishga va uni tez haletishga yordam beradi. Jumladan, diagrammalar juda katta hajmdagi sonlarni ko'rgazmali tasvirlash va ular orasidagi aloqadorlikni aniqlashda juda foydalidir. Yangi mavzu tushunchalarini kiritish uchun kerakli o'rganilgan matematik tushuncha va tasdiqlarni takrorlash, tartiblash va qo'yilgan maqsadga qaratish uchun elektron ko'rgazmali qurol ko'rinishida tayyorlangan savollar va tez hal etiladigan topshiriqlar ekranda namoyish etiladi. O'qituvchi o'quvchilarning javoblarini baholab beradi va bu savol-javobda barcha o'quvchilarning faol ishtirok etishiga e'tiborni qaratadi. Dars yakunida ekranda o'quvchilarga keyingi mashg'ulot mavzusiga tayyorgarlik ko'rish uchun savollar va uy vazifalari sifatida topshiriqlar beriladi. Xulosa qilib aytganda, zamonaviy axborot vositalari darsni samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida informatika fanlarida o'quvchilar o'zlari amalda qo'llashlari ham maqsadga samarali erishish ko'rsatkichi anchagina yuqori bo'ladi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1. Raxmonqulov S, IBM PS kompyuterida ishlash T. 1998.
2. Raxmonqulov S , Roziev F.Z "Virtual kutubxona" T.2000.
3. Alixanov S. Fanlarni o'qitish metodikasi. - T.; O'qituvchi, 1993.
4. Ostonov Q. Yangi pedagogik texnologiyalarni matematika o'qitish jarayonida tadbiq etish usullari. Uslubiy qo'llanma. - Samarqand: SamDU nashri, 2006.